INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT
10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI

TILNING IJTIMOIY FUNKSIYALARI VA ULARNI AMALGA OSHIRISHDAGI ZAMONAVIY MUAMMOLAR
(KOMPLEKS TAHLIL)

Mahliyo Hojiyevna Buxorova,
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19967299

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tilning ijtimoiy mohiyati hamda uning asosiy funksiyalari – kommunikativ, kognitiv-logik, emotsional-ekspressiv, regulyativ, fatik va poetik funksiyalarning mazmuni va o‘zaro aloqadorligi kompleks tarzda tahlil etiladi. Shuningdek, til funksiyalarining amalga oshish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy, psixologik va situativ omillar bilan bog‘liq muammolar aniqlanib, zamonaviy axborot muhiti sharoitida ularning namoyon bo‘lish xususiyatlari ochib beriladi. Maqolada tilning ijtimoiy funksiyalarini kompleks o‘rganish zaruriyatini asoslab beradi hamda zamonaviy tilshunoslikda funksional yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *til, ijtimoiy funksiya, muloqot, jamiyat, kommunikatsiya, kognitiv-logik, axborot, nutq, ijtimoiy omillar, axborot almashinuvi.*

Аннотация. *В данной статье всесторонне анализируется социальная сущность языка, а также содержание и взаимосвязи его основных функций – коммуникативной, познавательно-логической, эмоционально-экспрессивной, регулятивной, фатической и поэтической. Выявляются проблемы, связанные с социальными, психологическими и ситуационными факторами, возникающими в процессе реализации языковых функций, и раскрываются особенности их проявления в современной информационной среде. Статья обосновывает необходимость всестороннего изучения социальных функций языка и служит для развития функционального подхода в современной лингвистике.*

Ключевые слова: *язык, социальная функция, диалог, общество, коммуникация, когнитивно-логический подход, информация, речь, социальные факторы, обмен информацией.*

Abstract. *This article comprehensively analyzes the social essence of language, as well as the content and interrelations of its main functions-communicative, cognitive-logical, emotional-expressive, regulatory, phatic, and poetic. It identifies issues related to social, psychological, and situational factors that arise during the implementation of linguistic functions, and reveals the specific features of their manifestation in the modern information environment. The article substantiates the need for a comprehensive study of the social functions of language and serves to develop a functional approach in modern linguistics.*

Keywords: *language, social function, dialogue, society, communication, cognitive-logical, information, speech, social factors, information exchange.*

Kirish. Tilshunoslik insoniyat tafakkuri va madaniy taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan eng qadimiy fanlardan biri sifatida tilning tabiati, uning tuzilishi va ijtimoiy vazifalarini o‘rganadi. Til ushbu fanning asosiy tadqiq ob’ekti bo‘lib, u faqat insoniy jamiyat doirasida mavjud bo‘ladi va muloqot vositasi sifatida

yashaydi. Shu bois jamiyatdan tashqari tilning mavjud bo‘lishi mumkin emas, tilsiz jamiyatni ham tasavvur etib bo‘lmaydi.

Tilning ijtimoiy mohiyati, avvalo, uning kommunikativ funksiyasida namoyon bo‘lib, u insonlar o‘rtasida axborot almashinuvini ta’minlaydi. Biroq uzoq vaqt davomida tilshunoslikda muloqot jarayoni faqat nutqning og‘zaki va yozma shakllari doirasida tahlil qilinib, uning etnik, psixologik va situativ omillar bilan bog‘liq yaxlit tizim sifatidagi xususiyatlari yetarlicha hisobga olinmagan.

Adabiyotlar tahlili. Tilning ijtimoiy funksiyalarini o‘rganish masalasi tilshunoslikda uzoq tarixga ega bo‘lib, bu yo‘nalishda funksional va sotsiolingvistik yondashuvlar muhim o‘rin tutadi. A.A. Abduazizov, A. Sodiqov, M. Irisqulov kabi olimlarning tadqiqotlarida tilning kommunikativ va kognitiv xususiyatlari, uning jamiyat bilan uzviy bog‘liqligi nazariy jihatdan asoslab berilgan. V.A. Avrorin hamda V. fon Gumboldt asarlarida tilning funksional tabiati, uning dinamik rivoji va tafakkur bilan aloqasi chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, V.D. Bondaletovning sotsiolingvistik qarashlari tilning ijtimoiy muhit bilan bog‘liq holda shakllanishi va rivojlanishini tushuntirishda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda funksional, tizimli va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tilning ijtimoiy funksiyalari ularning o‘zaro aloqadorligi hamda zamonaviy axborot muhitidagi namoyon bo‘lish xususiyatlari asosida kompleks ravishda o‘rganildi. Shuningdek, nazariy manbalar tahlili orqali ijtimoiy, psixologik va situativ omillarning til funksiyalariga ta’siri aniqlandi.

Tahlillar va natijalar. Inson ijtimoiy mavjudot bo‘lib, u jamiyatda yashar ekan, doimo boshqalar bilan aloqaga kirishadi. “Kommunikatsiya” atamasining o‘zi ham umumiylik, birlashuv ma’nolarini anglatib, til orqali insonlar o‘zaro bog‘lanishini ifodalaydi. Muloqotning mavjudligi jamiyatning mavjudligi bilan teng bo‘lib, u orqali inson nafaqat axborot almashadi, balki o‘z fikri, munosabati va his-tuyg‘ularini ham ifoda etadi. Bu jarayon tilning emotsional-ekspressiv funksiyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u nutqning ta’sirchanligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, muloqot insonni hayvonot olamidan ajratuvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi va barcha ilm-fan sohalarida bilimlarni shakllantirish hamda ularni avlodlarga yetkazishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Muloqot jarayonida tilning regulyativ funksiyasi ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, xulq-atvorni boshqarish va ijtimoiy me’yorlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu funksiya orqali nutq ta’sir vositasiga aylanadi. Shu bilan birga, fatik funksiya muloqotni o‘rnatish va uni saqlab turishni ta’minlaydi, ya’ni insonlar o‘rtasida ijtimoiy aloqaning uzluksizligini ta’minlaydi.

Til ijtimoiy hodisa sifatida inson hayotining barcha sohalarida markaziy o‘rinni egallaydi. Jamiyatdagi hayot sharoiti, insonning bilish va yaratuvchanlikka qaratilgan faoliyati uning doimiy ravishda boshqalar bilan muloqotga kirishishini talab etadi. Ana shu jarayonda til belgilar tizimi orqali amalga oshadigan aloqa insonlar o‘rtasidagi munosabatlarning asosini tashkil qiladi. Shu ma’noda tilning kommunikativ funksiyasi jamiyatning barqaror faoliyatini ta’minlovchi yetakchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Muloqot orqali shaxslar o‘zaro axborot almashadilar, ijtimoiy munosabatlarni shakllantiradilar va taraqqiyot jarayonini harakatga keltiradilar. Shuning uchun insoniyat tarixi ham aynan muloqot jarayonida yaratiladi va rivojlanadi.

Boshqa tomondan qaralganda, til faqat axborot almashinuv vositasi bo‘lib qolmasdan, insonning bilish faoliyatini ta’minlovchi asosiy mexanizm sifatida ham namoyon bo‘ladi. Biroq ushbu funksiyalarni samarali amalga oshirishda zamonaviy axborot muhiti, ma’lumotlar hajmining ortishi va ularni qabul qilish murakkabligi kabi muammolar yuzaga kelmoqda.

Muloqotning samaradorligi ko‘p jihatdan uning mazmunliligi, aniqligi va tushunarliligiga bog‘liq bo‘lib, bu holat til birliklarining cheksiz imkoniyatlari bilan belgilanadi. Tilda ijtimoiy-tarixiy axborot ikki asosiy shaklda saqlanadi: birinchidan, tilning ichki tizimida – lug‘at tarkibi va grammatik kategoriyalarda; ikkinchidan, nutqiy faoliyat mahsuli bo‘lgan og‘zaki va yozma matnlarda. Bu jarayon tilning kognitiv va kommunikativ funksiyalari bilan bir qatorda, uning regulyativ funksiyasi bilan ham bog‘liqdir. Chunki til orqali insonlar faqat axborot almashmaydi, balki bir-birining xatti-harakatlariga ta’sir ko‘rsatadi, ijtimoiy me’yorlarni belgilaydi va ularni tartibga soladi.

Tilning emotsional-ekspressiv funksiyasi esa muloqot jarayonida alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u orqali inson o‘z his-tuyg‘ulari, ichki kechinmalari va munosabatini ifoda etadi. Bu funksiya muloqotning ta’sirchanligini oshiradi va ishtirokchilar o‘rtasida psixologik yaqinlikni ta’minlaydi. Shu bilan birga, fatik funksiya muloqotni boshlash, uni davom ettirish va ijtimoiy aloqaning uzluksizligini ta’minlashga xizmat qiladi. Masalan, oddiy salomlashuv yoki suhbatni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan nutqiy harakatlar aynan shu funksiyaning namoyonidir.

Biroq ushbu funksiyalarni to‘liq ro‘yobga chiqarish jarayonida ijtimoiy muhit, axborot oqimi va inson psixologiyasi bilan bog‘liq qator muammolar mavjud bo‘lib, ularni chuqur ilmiy tadqiq etish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir. Til taraqqiyoti va uning ijtimoiy omillar bilan uzviy bog‘liqligi masalasi tilshunoslikda doimo dolzarb bo‘lib kelgan. Zamonaviy tadqiqotlarda tilning ijtimoiy funksiyalari nafaqat tasniflanadi, balki ularning amalga oshish mexanizmlari ham

chuqur tahlil etiladi. Til o‘z tabiatiga ko‘ra doimiy harakatdagi, dinamik tizim bo‘lib, u jamiyat ehtiyojlari asosida shakllanadi va rivojlanadi. Shu jihatdan u nafaqat axborot uzatish vositasi, balki jamiyat tajribasini saqlovchi va avloddan-avlodga yetkazuvchi akkumulyativ mexanizm sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Vilgelm fon Gumboldt ta’kidlaganidek, “Til har doim rivojlanib turadigan dinamik hodisadir. Bir tomondan til faoliyat bo‘lsa, ikkinchi tomondan faoliyat mahsulidir. Tilda so‘zlovchi har bir kishi o‘zining nutq faoliyati jarayonida tilning rivojlanishi uchun o‘z hissasini qo‘shadi”, demak, til bir vaqtning o‘zida ham faoliyat, ham uning mahsuli sifatida tilning kognitiv-logik funksiyasini ochib beradi, chunki inson nutq jarayonida nafaqat fikrni ifoda etadi, balki uni shakllantiradi ham. Demak, til tafakkurning asosiy quroli sifatida bilish jarayonlarini tartibga soladi.

Til rivojida ijtimoiy omillarning ta’siri alohida ahamiyatga ega. Ijtimoiy muhit, jamiyat taraqqiyoti va inson faoliyati tildagi o‘zgarishlarni belgilaydi. Tilshunoslikda ijtimoiy yo‘nalishning asoschisi hisoblangan A.Meye ta’kidlaganidek, so‘z ma’nolarining kengayishi yoki torayishi, ularning yangi ma’nolar kasb etishi bevosita ijtimoiy sharoitlar bilan bog‘liq. Bu holat tilning kommunikativ funksiyasining kengayishi bilan ham uyg‘un, chunki yangi ijtimoiy ehtiyojlar yangi leksik va semantik vositalarni talab qiladi.

Shu bilan birga, til inson his-tuyg‘ulari va ruhiy holatini ifodalash vositasi sifatida emotsional-ekspressiv funksiyani bajaradi. Nutq orqali shaxs o‘z munosabatini bildirib, suhbatdoshga ta’sir o‘tkazadi. Bu esa muloqotning samaradorligini ta’minlaydi va ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlaydi.

Tilning ijtimoiy hayotdagi yana bir muhim jihati uning regulyativ funksiyasi bilan bog‘liq. Til orqali insonlar o‘zaro harakatlarini muvofiqlashtiradi, ijtimoiy me’yorlar va qoidalarni belgilaydi hamda jamiyatdagi tartibni saqlaydi. Shu ma’noda til ijtimoiy boshqaruv vositasi sifatida ham xizmat qiladi. V.D.Bondaletovning ta’biri bilan aytganda “jamiyatda til rivojlanishi uchun unga muayyan ijtimoiy muhit kerak. Mazkur ijtimoiy muhitni yuzaga keltiruvchi sharoitlar til rivojlanishining mos ravishdagi darajasi bilan o‘zaro bog‘lanadi”.

Muloqot jarayonida aloqaning o‘rnatilishi va saqlanishini ta’minlovchi fatik funksiya ham muhim o‘rin tutadi. Bu funksiya orqali suhbatdoshlar o‘rtasidagi kontakt barqarorlashadi, muloqotning uzluksizligi ta’minlanadi. Ayniqsa, kundalik muloqotda bu funksiyaning ahamiyati katta.

Tilning estetik qirrasi esa uning poetik funksiyasida namoyon bo‘ladi. Bu funksiya orqali til nafaqat axborot uzatadi, balki badiiy ta’sir kuchiga ega bo‘lib, madaniy qadriyatlarni shakllantiradi va saqlaydi. Poetik funksiya tilning obrazlilik, uslubiy boylik kabi xususiyatlarini yuzaga chiqaradi.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida o‘zbek tilining qo‘llanish doirasi tobora kengayib bormoqda va u fan-texnika, ta’lim, ommaviy axborot vositalari, davlat boshqaruvi hamda turli ijtimoiy institutlar tili sifatida faol amal qilmoqda. Jumladan, u kundalik muloqot vositasi bo‘lish bilan birga radio va televidenie, ta’lim tizimi, ilmiy tadqiqotlar, davlat idoralari, sud jarayonlari, ishlab chiqarish, rasmiy yozishmalar, matbuot, ijtimoiy-siyosiy hayot, transport va xizmat ko‘rsatish sohalarida ham universal aloqa vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu holat tilning kommunikativ funksiyasining kengayib, jamiyatning barcha sohalarida samarali ishlayotganini ko‘rsatadi.

Tilning ijtimoiy funksiyalari doirasi kengayishi uning lug‘aviy tarkibiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Jamiyatdagi yangilanishlar, fan va texnika rivoji, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar natijasida yangi tushunchalar paydo bo‘ladi va ularni ifodalash uchun til doimiy ravishda boyib boradi.

Bu jarayon tilning kognitiv-logik funksiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, u voqelikni anglash va yangi bilimlarni tizimlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. A.A.Abduazizov ta’kidlaganidek, “Jamiyat taraqqiyoti bilan birga o‘zgarishda bo‘lgan til lug‘at tarkibi tilning o‘z ichki zahiralari hamda rivojlangan tillardan so‘z o‘zlashtirish hisobiga boyiydi. Yangi so‘zlar va ularning ma’nolari tilda tegishli qonun-qoidalar asosida yuzaga keladi”. Shu bilan birga, tildagi o‘zgarishlar nafaqat axborot uzatish, balki insonning his-tuyg‘ulari va munosabatlarini ifoda etish bilan ham bog‘liq. Muloqot jarayonida shaxs o‘z ruhiy holatini ifodalaydi, suhbatdoshga ta’sir ko‘rsatadi va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlaydi. Bu esa tilning emotsional-ekspressiv funksiyasining muhimligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda tilning ijtimoiy funksiyalari o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning kengayishi til tizimining leksik, semantik va stilistik jihatdan boyishiga olib keladi. Jamiyat taraqqiyoti esa o‘z navbatida ushbu funksiyalarning yanada takomillashuvini ta’minlaydi. Shuning uchun tilning asosiy ijtimoiy funksiyalarini amalga oshirishdagi muammolarni o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduazizov A.A. Tilshunoslikka kirish nazariyasi. – T.: Sharq, 2010.
2. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikkka kirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1981.
3. Аврорин В.А. Прблемы изучения функциональной стороны языка. – Ленинград: Наука, 1975..
4. Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984.
5. Бондалетов В.Д. Социальная лингвистика. – М.: Просвещение, 1987.